


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

# FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-yashriyot bo'limida tayyorlandi.

## Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir  
Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-q'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
AZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Angara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f.d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesia)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Ohio State University, PhD, prof
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk University
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		

## Tahririyat kengashi

### PEDAGOGIKA BO'YICHA

EGAMBERDIYEVA T.	FarDU, p.f.d., prof.	DAVLYATOVA G.	FarDU, p.f.n., dots.
XONKELDIYEV Sh.	FarDU, p.f.d., prof.	BAYDJANOV B.	FarDU, p.f.n., dots.
TOJIBOYEVA H.	O'z Res FA Pedagogika ITI p.f.d. (Dsc)	ABBASOVA N.	FarDU, p.f.f.d., dots.
QURBONOVA B.	FarDU, p.f.d. (DSc), prof	GOFUROVA N.	FarDU, p.f.f.d.
O'RINOVA N.	FarDU, p.f.n., dots.	URAIMOV S.	FarDU, p.f.f.d., dots. (DSc)

**Bo'lim boshlog'i:** Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

**Texnik muharrirlar:** Sheraliyeva J.  
Mirkarimova Sh.

**Musahhihlar:** Mahmudov F.  
O'rinboyev I.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

<b>B.Sh.Shermuhammadov, Q.B.Qurbanova</b>	
Oliy ta'limda talabalarни ijtimoiy hamkorlikka tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	5
<b>T.Эгамбердиева, С.Юлдашев</b>	
Исторические корни народных игр .....	11
<b>A.A.Turaханов</b>	
Факторы формирования психологической устойчивости у будущих военных	
руководителей к негативным идеям и социальным угрозам .....	17
<b>N.R.Gafurova</b>	
Advanced mnemonic techniques for students in language courses .....	23
<b>A.N.Qosimov</b>	
O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-	
pedagogik asoslari.....	30
<b>N.R.Gafurova</b>	
Developing critical thinking skills through integration of artificial intelligence technologies in	
reading and writing at Fergana State University.....	36
<b>M.M.Yuldashev</b>	
O'quvchi organizmining funksional imkoniyati va jismoniy yuklamalarga moslashuvi .....	42
<b>Sh.A.Ibragimova</b>	
Ishbilarmonlikning ijtimoiy-ma'rifiy va pedagogik jihatdan o'rganilish zarurati va uni	
rivojlanish genezisi.....	46
<b>N.R.Gafurova</b>	
Teaching english through film: a contextual approach to language learning.....	52
<b>D.A.Abduraxmonov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni	
rivojlantirish bosqichlari.....	56
<b>J.V.Solijonov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	59
<b>N.T.Mirzamaxmudova</b>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati metodikasini	
rivojlantirishning metodologik jihatlari.....	62
<b>N.R.Gafurova</b>	
The effect of integrating literature into second language classrooms on student engagement in	
higher education institutions.....	66
<b>D.A.Maxmudova</b>	
The role of technology in language teaching: enhancing engagement through digital tools.....	70
<b>D.O.Gulamova</b>	
Imom Al - Buxoriy ma'naviy merosining yoshlarni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati .....	76
<b>N.R.Gafurova</b>	
The impact of creative writing exercises on language proficiency and self-expression.....	82
<b>B.M.Artikova</b>	
Innovative approaches to developing professional competence in students of technical higher	
education institutions (based on the example of the building and construction specialty) .....	89
<b>M.N.Haytboyeva</b>	
"Rivojlanayotgan sun'iy intellekt davrida ta'lim: ChatGPT imkoniyatlari yordamida	
o'qitish va o'rganishni rivojlantirish" .....	93
<b>N.U.Jamalova</b>	
Vitagen ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari va gumanitar fanlarga tatbiqi .....	97
<b>Sh.R.Temirov</b>	
Umumta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlanishida gimnastika	
mashg'ulotlarining samaradorligi.....	101
<b>N.R.Gafurova</b>	
The impact of online learning platforms on school education .....	108



UO'K: 297.6:37.017

**IMOM AL - BUXORIY MA'NAVIY MEROSINING YOSHLARNI KOMILLIK RUHIDA  
TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI**

**ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ В ВОСПИТАНИИ  
МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ СОВЕРШЕНСТВА**

**THE IMPORTANCE OF IMAM AL-BUKHARI'S SPIRITUAL HERITAGE IN EDUCATING  
YOUTH IN A SPIRIT OF PERFECTION**

Gulamova Dilafruz Olimjonovna   
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

*Annotatsiya*

*Maqolada Imom al-Buxoriyning muqaddas islam diniga qo'shgan hissasi, ta'lif berishning ahamiyati, asarlarida ifodalangan ezgu g'oyalar bilan yosh avlod tarbiyasida buyuk muhaddis, hadis ilmida amirul-mo'minin Imom al-Buxoriy ma'naviy merosining jahonshumul ahamiyati, alloma asarlarining yoshlari ta'lif tarbiyasida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish hamda jiboyi fazilatlarni shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyatga egaligi o'rganilgan.*

*Аннотация*

*В статье рассматривается вклад имама аль-Бухари в священную религию ислам, важность образования, всеобщее значение духовного наследия имама аль-Бухари, великого хадисоведа и амира аль-му'минина в науке ислама. Изучено значение хадисов в воспитании подрастающего поколения благородными идеями, выраженными в его трудах, а также воспитательное значение трудов ученого в развитии духовно-нравственных качеств молодежи и формировании положительных качеств.*

*Abstract*

*The article examines the contribution of Imam al-Bukhari to the holy religion of Islam, the importance of education, the universal significance of the spiritual heritage of the great hadith scholar and leader of the faithful in the science of hadith, Imam al-Bukhari, in the upbringing of the younger generation with the noble ideas expressed in his works, and the educational significance of the scholar's works in the development of spiritual and moral qualities and the formation of positive qualities in the education of young people.*

**Kalit so'zlar:** *Imom Buxoriy, ma'naviy meros, hadis, muhaddis, barkamol avlod, ma'naviyat, axloq, pedagogika, tarbiya, farzand tarbiysi, ta'lif.*

**Ключевые слова:** *Имам Бухари, духовное наследие, хадисы, хадисовед, совершенное поколение, духовность, этика, педагогика, воспитание, воспитание детей, образование.*

**Key words:** *Imam Bukhari, spiritual heritage, hadith, hadith scholar, perfect generation, spirituality, ethics, pedagogy, upbringing, child rearing, education.*

**KIRISH**

Yer yuzida mavjud 200 dan ortiq mamlakat orasida O'zbekistonning o'z o'rni bor. U azaldan madaniyat va ziyo maskani bo'lib kelgan. O'zbekiston dunyo tamadduniga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlarni tarbiyalab, voyaga yetkazgan.

Darhaqiqat, buyuk allomalar va mashhur sarkardalar, mutafakkirlar, jumladan, Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Abu-l-Muin Nasafiy, Najmuddin Kubro, Mahmud Zamaxshariy, Abdusaliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Farg'oniy, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab ulug' siymolar umumbashariyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar. Bu esa o'z o'rnda xalqimiz qalbida chuqur iftixor va milliy g'urur tuyg'ularini uyg'otib, shunday buyuk ajdodlarning avlodni ekanimizga shukronalar aytishga chorlaydi. Shu bois, mustaqillik yillarida buyuk allomalarimizning butun jahonda hayrat bilan o'rganilayotgan merosini tiklash hayotiy ehtiyojga aylandi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tabiiyki har bir xalq o'zining o'tmishdagi buyuk ajdodlari bilan faxrlanish huquqiga ega. Jumladan, o'zbek xalqi ham dunyo tamaddunniga qo'shgan hissasi bilan faxrlana oladi. Ayniqsa, "Hadisshunoslik" nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu tarixiy jarayon vujudga kelgan kundanoq tarixchilar nigohidagi eng mashhur mavzulardan biridir. Hadislar har qanday ilmiy asarni asoslashning muhim qismi bo'lgan. Undan hikmatli so'z va matal sifatida ham foydalilanigan. Muhammad alayhissalomning ibratlil ishlari, e'tiqod, poklik va insonga xos ma'naviy-ahloqiy hislatlarni ifodalovchi so'zları, pand-nasihatlari uning nomi bilan bog'liq hadislarda mujassamlangan.

Hadis ilmida "Amir ul-mo'minin", "Imom al muhaddisiyn" ("Barcha muhaddislarning peshvosi") degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan Imom Buxoriy ilmiy-diniy merosi xalqimiz ma'naviy-ruhiy hayotida beqiyos o'ringa ega. Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o'zining go'zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatiligi va beqiyos saxovatiligi, taqvodorligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan.

Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan. Al-Buxoriyning 4 jilddan iborat "Al-jome as-sahih" nomli hadislar to'plami musulmonlar uchun Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi manba hisoblanadi. Uning g'oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom al-Buxoriy gacha o'tgan muhaddislar o'z to'plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o'tirmay qatorasiga kiritaverганлар. Al-Buxoriy oldingi hadislarini tаддиқ qilish mobaynida ularning ko'pchiligidagi "sahih" hadislar "zaif" hadislarini bilan aralash ekanligini payqagan. Bu esa uning hadis yig'ishga bo'lgan qiziqishini ottirdi. Imom al-Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo'lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot startegiyasi" to'g'risidagi farmonida belgilangan (7 ta ustivor yo'nalish)da, "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishida, "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish" maqsadga muvofiqligi, dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari va ilmiy tadqiqot markazlari, universitetlar bilan hamkorlikda, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini keng o'rganish hamda targ'ib qilishga katta e'tibor berilmoqda.

Hozirgi ilm-fan va texnikaviy taraqqiyotning Jadallik bilan rivojlanishi hamda mintaqalararo globallashuv jarayonida oldimizda turgan muhim va dolzarb vazifalardan biri buyuk ajdodlarimiz qoldirgan bebafo moddiy-ma'naviy boylikdan foydalaniib, bor kuch-qudratimiz va imkoniyatimizni ertangi porloq istiqbolimiz, ezgu orzu-niyatlarimizni amalga oshirish uchun barkamol avlodni tarbiyalash talab etiladi. Har qanday davlatning vujudga kelishi, mustaqillikni qo'liga kiritishi va uni barqaror rivojlantirib mustahkamlashi asoslarida, albatta, o'sha xalq va millatning bilim darajasi, harakati va tarixi yotadi. Insoniyatning tajribasi va necha ming yillardan buyon xalqlar va davlatlar orasida davom etib kelayotgan siyosiy-mafkuraviy va ma'naviy-axloqiy kurashlar muhaddislar sultonı Imom Buxoriy so'zi bilan aytganda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'imasligini isbotladi. Shunga ko'ra aholimizning tinch-osuda hayotini ta'minlash, uning farovonligini oshirish, iqtisodiyotimizni izchil rivojlantirish, Yangi O'zbekistonimizning xalqaro maydonidagi obro'e'tiborini va o'rnnini yuksaltirish, mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha o'z oldimizga qo'yayotgan maqsadlar miqyosi va ko'lamiga ko'ra, xalqimizning ezgu umidlari bilan hamohangdir. Shuning uchun barkamol, sog'lom fikrli va e'tiqodli, oila, jamiyat va davlat oldidagi burchi, mas'uliyatini anglab yetadigan, har tomonlama kamol topgan, vatanim deb, elim deb yonib yashaydigan va mehnat qiladigan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega avlodni tarbiyalashni davr-zamon taqozo etmoqda. Shu maqsadda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish yo'lida o'zbek xalqining allomalari tomonidan necha ming yillik ijod natijasida tarix zarvaraqlarida qoldirgan moddiy, ma'naviy-axloqiy merosdan foydalinish va shu asosda zamonaqiy bilimlarni berish zarurligi talab etmoqda.

Hadis ilmida amirul-mo'minin, buxorolik mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) to'plagan benazir meros – Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning sahib (ishonchli) hadislarini mana o'n ikki asrki, butun insoniyatni hidoyat yo'liga boshlab kelmoqda. Buyuk allomaning hayotiy va ilmiy faoliyati azaldan butun jahonda doimiy ravishda o'rganilib, u zot haqida G'arb-u Sharqda ko'plab ilmiy-ommabop asarlar yaratilgan.

Binobarin, buyuk alloma Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra Islom dinida Qur'oni Karimda keyingi muqaddas hisoblangan "Sahihi Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olinganini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida yuksak minbarda turib baralla e'lon qildi.

Hozirgi globallashuv jarayonida ma'naviyatimizni tub ma'noda asrab-avaylash va unga tahdid soladigan xurujlarga qarshi kurashish uchun, avvalambor, shu muqaddas yurtda yashayotgan har qaysi inson, u yosh bola yoki yoshi katta bo'lishidan qat'i nazar, o'zligini anglashi, qadimiy va betakror tariximiz va dunyo ma'naviyatini boyitishga hissa qo'shgan madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimiz qoldirgan tengi yo'q ma'naviy-axloqiy va madaniy merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligini ongli qarab, mustaqil fikrplashi va diyorimizdag'i barcha ijobji o'zgarishlar faxr va g'urur uyg'otishi hamda vatanparvarlik, daxldorlik tuyg'usi bilan yashasa, o'z maqsadiga yetadi.

Barkamol avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga asosiy mezon bo'lib xizmat qiladigan omillardan biri bu Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni karim, Payg'ambarimizning hadislari va shu qatorda buyuk vatandoshlarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Hakim Termiziy va boshqa muhaddis allomalarning hadislari to'plamlari va buyuk Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy tarbiya to'g'risidagi yaratgan asarlaridir.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy va boshqa muhaddis allomalarning merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, milliy-diniy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g'oyalari ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini yanada kuchaytirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. 2018-yil Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori asosida Samarqanda Hadis ilmi maktabi, 2019-yil Termizda Imom Termiziy o'rta maxsus isлом ta'l'im muassasasi ochilishi fikrimizning isbotidir.

Buyuk mutafakkir va allomalarimizning isлом madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida "Muhaddislar sultoni" deb ulkan shuhrat qozongan, muborak diyorimiz zaminidan yetishib chiqqan Imom Buxoriy va u kishining hadislari to'plami "Al-Jome as-sahih" kitobini tilga olamiz va bu kitob Islom dinida Qur'oni Karimdan keyin ikkinchi manba hisoblanadi va odob axloqqa oid "Al-adab al-mufrad" asari ham ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasiga qaratilgan bebaho asardir. Keyingi o'rinda yurtdoshimiz Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy va u kishining "Sunani Termiziy" asarini, keyin esa avliyolar hakimi – Hazrat Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy va u kishining "Navodir al-usul fi ma'rifati ahodis ar-Rasul" asarini faxr va iftixon ila tilga olamiz va o'rganamiz. Ana shu vatandoshlarimiz tomonidan bayon qilingan hadislari va yaratilgan kitoblar payg'ambarimizning hayot ekanida aytgan so'zları, bajargan amallari va ko'rsatmalarini hamda Qur'oni Karim suralarini sharhlaydi, targ'ib qiladi, qiymatini oshiradi, ahamiyatli va muhim tomonlarini tahlil qilgan holda, uni ommalashtirish vazifasini bajaradi. Bu yo'lida buyuk mutafakkirlarimizning mazmunga boy, keng qamrovga ega bo'lgan tarbiyaviy merosidan to'g'ri hamda oqilona foydalanish, undan namuna olish maqsadida turli yo'nalishdag'i ta'l'im-tarbiya jarayoniga tatbiq etish ilmiy ahamiyatga egadir.

Eng nozik va murakkab bo'lgan bu sohada, avvalo, din ma'naviyat va madaniyatning ustunlaridan biri ekanini, barcha zamonlarda milliy g'oya va mafkura diniy qarashlar bilan uyg'un rivojlanishini nazarda tutish lozim. Din o'z mohiyatiga ko'ra poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg'ular orqali milliy istiqlol mafkurasingning g'oyalalarini yosh avlodning qalbi va ongiga singdiradi. Muqaddas dinimizga sog'lom va mo'tadil munosabatni shakllantirish – bu boradagi eng muhim mafkuraviy vazifadir. Milliy ma'naviy-axloqiy tarbiyamizning bir teran tomiri, isлом ta'limotoida Qur'oni Karimdan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi manba – hadislardir. Hadisi Sharifda Payg'ambarimizning hayoti va faoliyati, diniy va ma'naviy-axloqiy yo'l-yo'riqlari, hikmatli so'zları, madaniyat, ma'naviyat, axloq-odob, ta'l'im-tarbiyaga oid bayon etgan hikmatli so'zlarini ba'zan sunnat, ba'zan hadis, ba'zan esa xabar yoki asar shaklida qamrab olgan ko'rsatmalar mavjud. Hadislarda eng olivjanob insoniy fazilatlar keng tashviq qilinib, odamiylik sha'niga dog' tushiradigan barcha salbiy illatlar qoralanadi.

Imom al-Buxoriy to'plagan sahib hadislari Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatda ma'rifatli shaxsni tarbiyalashda, mehr-oqibat, saxiyilik, ota-onha va kattalarga hurmat, yetim-

## PEDAGOGIKA

---

yesirlarga muruvvat, mehnatsevarlik, halollik, vatanga muhabbat, turli xalqlarning o'zaro do'st, tinch-totuv yashashlari barkamol avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Taniqli musulmon olimi Amin Axsan Islahiy al-Buxoriyning uch alohida xususiyatini atab ko'rsatgan:

1.Tanlangan hadis yetkazuvchilar ro'yxatining sifati va puxtaligi. Imom Buxoriy o'zining sahib hadislarini to'plaganda ikkita moyilga asoslanib ish tutgan. Birinchisi, hadis yetkazuvchi yashagan davri bilan hadisni qabul qilgan odamning hayot vaqtini bilan to'g'ri kelishi. Ikkinchidan, shu ikkala odamning o'zaro uchrashganligining isboti bo'lishi kerak. Ular shu ma'lumotlarni aniq qayerdan organini aytishlari zarur. Bu degani, hadis to'plashda imom Muslim qo'yan talablardan ham jiddiy mezondir.

2. Imom al-Buxoriy nafaqat ishonib qolmay, islam ilmini o'rgatuvchilarning hadislarini qabul qilgan. Shu asnoda muridlarning aytganlarini rad qilgan.

3. Boblarning alohida joylashishi va tartibi. Bu muallifning teran bilim va dinni juda yaxshi tushunishidan dalolatdir. Bu esa o'z navbatida kitobni, diniy qoidalarni tushinishda juda foydali qo'llanmaga aylantirdi.

Imom Buxoriy hadis yig'ishda rivoyatchilarni tekshirishdan boshlagan. Eng avvalo, Xumaydiy Abdullax ibn Zubayrning hayot yo'lini, nasl-nasabini, Islomga qanday amal qilishi, adolatlimi yo'qmi, zehni, aql darajasi va shunga o'xshagan sifatlarini tekshirib ko'rgan. U rivoyatchida adolat bo'lishi uchun, avvalo, quyidagi to'rt shartga javob berishi kerak deb hisoblaydi:

1. Isrom dinida bo'lishi.

2. Balog'atga yetgan bo'lishi. (Balog'atga yetmaganlarning rivoyati qabul qilinmaydi)

3. Aqli, ya'ni aql – hushi sog' bo'lishi kerak. (Aql – hushi sog' emas odamning rivoyati mutlaqo qabul qilinmaydi).

4.Taqvodorligi. (Ma'lum bir gunoh qilgan, beg'amlik sanaladigan ishlarga yo'l qo'yan odamlarning rivoyati qabul qilinmaydi. Bu guruhg'a katta gunoh qilganlar, bid`atchilar va hadisdagi xizmati uchun haq organlar ham kiradi). Rivoyat qilishlaricha, hazrati Imom Buxoriy bir kishida hadis bor ekanligini eshitib, uni izlab borsa, u kishi ipini uzib ketgan molini ushslash uchun kiyimining etagini ko'tarib yem bordek ko'rsatib turgan ekan. Imom Buxoriy: "Molni aldashga jur'ati borgan kishidan hadis qabul qilib bo'lmaydi", – deb ortiga qaytgan ekan.

Imom Buxoriyning musulmonlar uchun Qur'oni karimdan keyingi maqomda hisoblangan "Al-Jome as-sahih" asari arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Imom Ismoil Buxoriyning "Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari)", „Al Jome as-sahih“ (Ishonchli to'plam), kabi ko'plab axloq-odobga oid asarlari mavjuddir.

Imom al- Buxoriy "Al-Jome as-sahih" asarining "Ilm kitobi": 10-bobida Bir ishni qilishdan ham, so'zlashdan ham avval ilm darkorligi to'g'risida gapirib: "Ilmga faqat ta'lim olish bilan erishiladi", – deb aytgan. Mazkur hadisdan shunday xulosaga kelish mumkinki, ilm izlamoq har bir musulmonga farzdir.

Isrom ta'limotida bilmagan narsasini bilishga harakat qilish, har bir musulmon erkak va ayolga buyuk vazifadir.

Demak, hadis kitoblarida ilm yo'liga kirgan kishining niyati xolis bo'lishi, kishi botinini to'g'rilashi, ilm ko'zi ojizlar uchun qalbning hayoti, zulmatda ko'zning nuri bo'lishi, ilm bilan fikr qilmoq ro'zaga barobarligi, ilm darsi kechalari qilingan ibodatga tengligi, u tufayli halol va haromning farqlanishi, baxtli insonlar unga erishishi, badbaxtlar esa undan mahrum bo'lishi haqida yozilgan. Muhaddislar ilmning ofati unutish, uni loyiq bo'Imagan kishiga so'zlash uni zoye qilishdir deb o'rjanilgan ilmni unutmaslik va loyiq bo'Imagan odamlarga so'zlashdan saqlanish zarur deb yetkazganlar.

Imom al- Buxoriy "Ilmni yozish bilan qayd qilinglar" degan hadisni keltirib, ilmni saqlash uchun uni yozib, qayd qilib qo'yish yaxshi ekan, shuning uchun ham o'quvchilarni, talabalarni o'zi bilan birga yon daftari va yozuv qurollari olib yurishga odatlantirish kerak.

Imom al- Buxoriy "Al-Jome as-sahih" asarining "Ilm kitobi": 15-bobida "Ikki narsadan o'zgasiga hasad qilish joiz emas, biri – kishiga Alloh taolo halol mol-dunyo bersa-yu, uni haq yo'lida sarflayotgan bo'lsa, ikkinchisi – kishiga Alloh taolo ilmu hikmat bersa va shu bilan hukm qilib, odamlarga bilganini o'rgatayotgan bo'lsa", – deganlar.

Imom al-Buxoriy "Sahihul Buxoriy"da uyatchan ham, dimog'dor ham ilm o'rgana olmaydi deb aytganlar. Demak, talaba yoshlarni ilmli qilish, barkamol avlodni tarbiyalash pedagoglardan alohida e'tiborni talab qiladi. Barkamol avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida xalqimiz tomonidan, ularning milliy urf-odatlaridan, an'analaridan tajribalar xalq tomonidan yaratilgan ijod namunalaridan va ilmiy amaliy asarlari va qoldirgan boy meroslarida o'z ifodasini topgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ilm-fanda hadis ilmining amiri deb tan olingen Imom Al-Buxoriy hadislari ko'p aql durdonalarini yoshlar tomonidan yanada ko'proq o'zlashtirilishi bugungi Yangi O'zbekiston ehtiyojlariga mos kelib, axloqiy fazilatlarni o'rganish, ya'ni pedagogika, psixologiya fanlarini o'qitishda yoshlarda ajoyib ichki kechinmalar, his-tuyg'ular uyg'otadi. Xullas, Imom al-Buxoriy hadislari yoshlarni mehnatsevarlik va erksevarlik, har qanday og'ir vaziyatda ham mustahkam iroda, vazminlik bilan ish tutish va omilkorlik, kelajakka, insonga doir udum va an'analar ruhida shuningdek, shaxsda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga katta imkoniyat beradi.

Imom al-Buxoriy hadislardan ko'zlangan maqsad:

1. Har bir sog'lom fikrlovchi insonni ijodiy faoliyatga, kasb-u korni halol olib borishiga, vatanparvar bo'lishiga ya'ni hadisi shariflar barchani to'g'ri yo'lga boshlashga xizmat qilishini yetkazish;
2. Yoshlarni ilm-u ma'rifikatga chorlash hadis kitoblarining xizmati bo'lib, ularda ilm talab qilish har bir muslimon va muslima uchun bir umrga farz qilingan;
3. Hadislarning jamiyatimiz a'zolarini axloqiy tarbiysi bo'yicha ahamiyati beqiyos, insonni tarbiyalash, ayniqsa, bolalarga, talabalarga odob va axloqdan puxta ta'llim va tarbiya berish uning muhim vazifalaridan biridir. Chunki jamiyat a'zolarining yaxshi xulqli, halol va pok bo'lishini orzu qilsak-u, o'sha jamiyatning kelajagi bo'lmish bolalar, talabalar tarbiysi haqida qayg'urmasak, niyatlarimiz sarobligicha qolaveradi;
4. Oilaviy munosabatlar va oila mustahkamligi borasida hadislarning ahamiyati o'ta qimmatlidir. Hadislarda umr yo'ldoshini tanlashdan tortib, unashtirilish, to'y, er-xotinlarning oiladagi majburiyatlar, haqlari, ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabat bo'yicha barcha kerakli ishlar haqida to'la-to'kis ma'lumot va ta'llimotlar berilgan.
5. Hadislarda jamiyat a'zolari iqtisodiy tarbiysi uchun keltirilgan foydalar benazir, ularda halol kasb, halol luqma, haromdan hazar qilish, tejamkorlik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik xislatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan hadislар barkamol avlod tarbiyasida muhim o'rinnegallaydi;
6. Hadislар talaba-yoshlarning ekologik tarbiysi borasida ulkan ahamiyat kasb etadi. Hadislarda hayvonot va o'simlik olami insonga berilgan ne'mat ekani va ularga nisbatan go'zal munosabatda bo'lish ekanligi uqtirilgan.
7. Hadislarda bag'rikenglik tarbiysi haqida ham irqi, millati kelib chiqishi va dinidan qat'i nazar barcha insonlar birodar ekani va ular bir-birlarini hurmat qilgan holda tinch-totuv yashashlari hamda jamiyat ravnaqi yo'lida, yaxshilik va taqvo yo'lida o'zaro hamkorlik qilishlari lozimligi, yomonlik va dushmanlik yo'lida hamkorlik qilmasliklari zarurligi qayta-qayta takrorlangan;
8. Hadisi shariflar jamiyat a'zolariga dunyoda tinchlik va osoyishtalik bo'yicha kurash olib borish lozimligini anglatishda katta ahamiyatga ega.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Hadislар vositasida barkamol yosh avlodni ma'nан yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat, ona-vatanga sadoqat va muhabbat, sog'lom fikrli hamda mamlakatda madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar: obodonlashtirish, mozorlarni tozalash, ariq-zovurlarni tartibga keltirish, ekinzorlarni ko'paytirish, ko'kalamzorlashtirish, qurilishlarni ta'mirlash kabilarni amalga oshirishga da'vat etish ma'naviy-axloqiy tarbiyaga bolgan ehtiyojni o'stirishga xizmat qiladi. Bunday ezgu ishlarni amalga oshirish natijasida har bir kishida ruhiy tetiklik, vijdon oldida poklik, yaxshilikka ehtiyoj tug'iladi.

Allohning nazari tushgan yurtimiz-O'zbekiston zaminidan o'zining ma'naviy-ma'rifiy meroslar bilan, jumlari jahonga tanilgan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqib, samarali faoliyat ko'rsatganlar. Ularning aql-zakovati, tafakkur dunyosi va yuksak ilmiy salohiyatining mahsuli

## PEDAGOGIKA

bo‘lgan bebabu asarlari ming yillar osha nafaqat bizning diyorimiz, balki jahon ahlining qudratli ma’naviy mulki sifatida ham ardoqlanadi

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Pedagogika tarixi. K. Hoshimov, S. Nishonova, M. Inomova va boshq.— T.: O‘qituvchi, 1996.
2. Ubaydulla Uvatov- “Buyuk Ajodolar” Toshkent 2014.5-bet
3. Ubaydulla Uvatov- “Buyuk Muhibbalar” Toshkent 1998. 33-bet.
4. Sulton Salim Buhoriy- “Tabarruk Ziyorotgohlar”. Toshkent 1993.2-bet 5. Al-Buxoriy. Al jome as sahih. N.Ibrohim, M.Kenjabek. 1992
5. [https://lex.uz/uz/docs/5841063//O'z.Res.Prezidentining Farmoni “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot startegiyasi” to'g'risida.PF – 60 son, 28.01.2022 yil](https://lex.uz/uz/docs/5841063//O'z.Res.Prezidentining_Farmoni_“2022-2026_yillarga_mo'ljallangan_Yangi_O'zbekistonning_taraqqiyot_startegiyasi”_to'g'risida.PF – 60 son, 28.01.2022_yil)
6. <https://president.uz/oz/lists/view/1063> O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi.
7. Саҳиҳи-Бухорий: диний маърифий /Абу Абдуллоҳ Мұҳаммад ибн Исмоил Бухорий.- Тошкент: “Munir” нашриёти, 2021.40-б
8. 101 ҳадис: диний-маърифий/ Айвар Аҳмад.- Тошкент: “Боок Медиа Шоп” МЧЖ қошидаги “Munir” нашриёти, 2022. Б-22.
9. Олтин силсила: Саҳиҳул Бухорий, 1-жуз-Тошкент: Hilol-nashr, 2023.- 216-b.
10. Azamatovich, K.A. 2024. Spiritual Heritage of Imam Al-Bukhari. International Journal on Integrated Education. 7, 1 (Feb. 2024), 98-103.